

IRQIY KAMSITILISH VA UNING HUQUQIY ASOSLARI, OQIBATLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
Anvarov Behruzning Irqiy kamsitilish va
uning huquqiy asoslari, oqibatlari”
mavzusida tayyorlagan maqolasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolda irqiy kamsitilish va unga qarshi ko'rilayotgan choralar, irqiy kamsitilishga oid xalqaro va milliy qonunchiligimiz tahlili hamda irqchilikka qarshi kurashish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligi to'g'risida shaxsiy fikrlar va mulohazalar bayon etiladi.

Kirish:

Irqiy kamsitish bu tenglik va inson huquqlari tamoyillarini buzishdir. Unga qarshi kurashish uchun irqiy kamsitishlardan himoya qilish zarurligini tan oladigan va uning namoyon bo'lishi uchun javobgarlikni belgilaydigan huquqiy vositalar va xalqaro shartnomalar ishlab chiqilgan. Aynan bu tahliliy materialimizda asosan irqiy kamsitilish huquqiy asoslari, va unga xalqaro va milliy huquqda qarshi ko'rilayotgan choralarni ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism:

Dastlab irqiy kamsitish tushunchalari va xususiyatlari haqida fikr bildirsak. Irqiy kamsitish bu irqiy yoki etnik kelib chiqishiga qarab odamlarga nisbatan tengsiz, salbiy munosabatdir. U hayotning turli sohalarida, jumladan, mehnat munosabatlari, ta'lim, uy-joy, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Aynan bu kabi kamsitilishlar tenglik prinsipini yani ko'plab xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan, barcha odamlar o'z qadr-qimmati va huquqlarida erkin va teng tug'iladi, degan asosiy tamoyilini buzilishi hisoblanadi.

Irqiy kamsitish ijtimoiy tengsizlikka olib keladi va jamiyatda to'liq ishtirok etish uchun to'siqlar yaratadi. Irqiy kamsitish qurbonlari rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishning cheklanishiga duch kelishadi. Ular qabul qilinmaslik va begonalashish tuyg'usini boshdan kechirishlari mumkin, bu esa o'z qadr-qimmati va ishonchining buzilishiga olib keladi. Irqiy kamsitish, shuningdek, jamiyatda ziddiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi, uyg'unlik va birdamlikni buzadi.

Mehnat va tadbirkorlik sohasida teng imkoniyatlardan foydalanishni cheklash irqiy kamsitishning asosiy oqibatlaridan biridir. Jabrlanganlar ishdan bosh tortish, ish haqining pastligi, martaba imkoniyatlarining yetishmasligi va o'z biznesining rivojlanishidagi to'siqlarga duch kelishlari mumkin. Bu daromadlar tengsizligiga, iqtisodiy tengsizlikka va marginal guruhlarining iqtisodiy ahvolining yomonlashishiga olib keladi. Irqiy kamsitish qurbonlari ko'pincha stressga tushadilar va o'zini past

baholaydilar. Ular depressiya, bezovtalik va boshqa psixologik muammolardan aziyat chekishi mumkin.

Irqiy kamsitish ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi, hayot sifatiga putur yetkazadi. Irqiy kamsitish shuningdek, ta'limga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jabrlanganlar sifatli ta'lim olishdan bosh tortishlari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashlari va oliy ma'lumot olishdagi to'siqlarga duch kelishlari mumkin. Bu ta'lim imkoniyatlarida tengsizlikni keltirib chiqaradi va umuman jamiyatning rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ko'rib turganimizdek irqiy kamsitilish jiddiy oqibatlariga olib keladi, shuning uchun irqiy kamsitishni bartaraf etish uchun samarali strategiya va choralarni ishlab chiqish kerak. Ta'lim tizimida tenglik tamoyillari, etnik farqlarni hurmat qilish va noto'g'ri qarashlarga qarshi kurashish haqida ma'lumot berish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, irqiy kamsitishlardan huquqiy himoyani kuchaytirish va qonunchilikning samarali qo'llanilishini ta'minlash zarur. Jamiyatning barcha a'zolarini irqiy kamsitishlarga qarshi kurashish va hamma uchun inklyuziv, adolatli jamiyat yaratish zarurligini anglash va tan olish asosiy omil hisoblanadi.

Umuman olganda, irqiy kamsitish qurbonlar va jamiyat uchun chuqur va keng oqibatlariga olib keladi. Shu bilan umumiy qismga yakun yasagan holda keyingi qismga o'tsak.

Irqiy kamsitish tarixiy jarayonlarning natijasidir: **Eduard Bonilla-Silva** kabi olimlar irqiy kamsitish ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklarni keltirib chiqargan tarixiy jarayonlarning natijasi deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, o'tmishda ba'zi odamlar guruhlari ko'proq imtiyozli, boshqalari esa kamroq imtiyozli bo'lishiga olib keladigan tizimlar yaratilgan¹.

Demak ko'rib turganimizdek irqiy kamsitish bu alohida tizim shaklida bo'lib ancha oldinlari shakllanib kelgan. Yana bir qancha olimlar fikriga ko'ra olimlar irqiy kamsitish *ta'lim tizimidagi* muammo deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim tizimi ko'pincha madaniyat va tildagi farqlarni hisobga olmaydi, bu esa tengsizlik va kamsitishga olib keladi².

Bundan tashqari yana ba'zi olimlar irqiy kamsitish *siyosiy tizim* muammosi deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, siyosiy tizim barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlamaydi, bu esa tengsizlik va kamsitishga olib keladi.

Hozirgi vaqtda ko'rib turibmizki irqchilik barcha jabhalarni egallab bo'lgan mehnat, talim hatto sportda ham keng avj olgan. Masalan sportning futbol turida bu holatlar ko'p uchraydi. Misol uchun LaLiganing (Ispaniya chempionatining) 15-turi doirasida "Valyadolid" – "Real Madrid" uchrashuvining yakuni arafasida madridliklar bosh murabbiyi Karlo Anchelotti 22 yoshli Braziliyalik vingerni yani Vinisius

¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2915460/>

² <https://www.jstor.org/stable/10.1086/685939>

Juniorni(qora tanli) o'zgartirishga qaror qildi.

Vinisius zaxira o'rindig'i tomon yo'l olar ekan tribunadagilar uni irqiy haqoratlar orqali, kamsitishlar orqali kuzatib qo'yishgan. Bunga javoban futbolchi bir qancha ishoralar ko'rsatgan. SHu boisdan tribunadan futbolchi tomon bir qancha buyumlar otilgan³.

Bu holat Vinisius bilan birinchi marta kuzatilayotgani yo'q. Bunga qadar futbolchi "Barselona" (2021 yil 24 oktyabr), "Malorka" (2022 yil 14 mart) va "Atletiko" (2022 yil 18 sentyabr) bilan uchrashuvlarda ham irqiy kamsitilgani sir emas. Ko'rib turganimizdek bu vaziyatda futbolchining bir qancha huquqlari poymol qilingan va kamsitilgan. Futbolchiga irqiy zo'ravonlikdan tashqari jismoniy va ruhiy bosimlar o'tkazilgan. Bu esa inson huquqlarining poymol qilinganini "yuqori darajada" kamsitilganligini bildiradi.

Endi irqiy kamsitilishga oid bir nechta nazariyalar haqida mulohaza yuritsak. Bu bo'yicha asosiy ikkita nazariya bor, birinchisi *strukturaviy irqchilik nazariyasi* ushbu nazariya irqiy kamsitish jamiyatning institutsional va ijtimoiy tuzilmalariga kodlangan tizimli tengsizliklar natijasidir, deb ta'kidlanadi. Ushbu tengsizliklar hayotning turli sohalarida, masalan, ta'lim, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va boshqalarda namoyon bo'lishi mumkin. Shunday qilib, irqiy kamsitish faqat odamlar o'rtasidagi individual munosabatlarni o'zgartirish orqali hal qilinishi mumkin bo'lgan muammo emas, balki jamiyatning tizimli tuzilmalarini o'zgartirishni talab qilishini ta'kidlaydi⁴.

Ikkinchisi *ramziy interaksionizm nazariyasi*: ushbu nazariya irqiy stereotiplar va xurofotlar odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi. Biror kishi o'zini va boshqalarni ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan irqiy toifalar obyektivi orqali idrok eta boshlaydi. Ushbu toifalar yangi o'zaro ta'sirlar va tajribalar jarayonida o'zgartirilishi mumkin. Shunday qilib, ramziy interaksionizm nazariyasi irqiy stereotiplar va noto'g'ri qarashlar muqarrar va o'zgarmas emas degan fikrni inkor etgan holda, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni o'zgartirish orqali o'zgartirilishi mumkinligini ta'kidlaydi⁵.

Strukturaviy irqchilik va ramziy interaksionizm nazariyalari bo'yicha umumiy xulosa beradigan bo'lsak.

Strukturaviy irqchilik va ramziy interaksionizm nazariyasi irqiy kamsitishni tushunishga turli xil yondashuvlarni taqdim etadi. Strukturaviy irqchilik nazariyasi jamiyatning institutsional va ijtimoiy tuzilmalarida kodlangan tizimli tengsizliklarga e'tibor qaratsa-da, ramziy interaksionizm nazariyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning rolini va irqiy stereotiplar va noto'g'ri qarashlarning shakllanishini ta'kidlaydi.

³ <https://olamsport.com/oz/news/>

⁴ Bonilla-Silva, E. (2014). Racism without Racists: Color-Blind Racism and the Persistence of Racial Inequality in the United States.

⁵ Becker, H. S. (1963). Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance.

Ikkala nazariya ham o'z ahamiyatiga ega va irqiy kamsitish muammosining murakkabligini tushunishga yordam beradi. Strukturaviy irqchilik nazariyasi jamiyat darajasidagi tengsizlik va kamsitishlarni bartaraf etish uchun tizimli tuzilmalarni o'zgartirishga qaratilgan. Boshqa tomondan, ramziy interaksionizm nazariyasi irqiy noto'g'ri qarashlarni yengish uchun odamlarning o'zaro ta'siri va ongini o'zgartirish muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, ushbu nazariyalar irqiy kamsitishni tushunish va unga qarshi kurashish uchun asos yaratadi. Ikkala yondashuvdan foydalanish irqiy tengsizlik va kamsitishlardan xoli bo'lgan adolatli va teng huquqli jamiyatni yaratishga yordam beradi.

Irqiy kamsitish butun dunyo jamiyatlari oldida turgan eng jiddiy muammolardan biridir. Xalqaro hamjamiyat irqiy kamsitishlarga qarshi kurashish zarurligini tan oladi va unga barham berishga qaratilgan bir qator norma va konvensiyalarni o'rnatdi.

Irqiy kamsitishlarga qarshi kurashni tartibga soluvchi asosiy hujjat BMTning **“Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi”** konvensiyasi hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1969 yil 4 yanvarda kuchga kirgan va bu hujjat har bir insonning irqi, rangi, millati va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, teng munosabatda bo'lish huquqini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 129-I-sonli “1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1969 yil 4 yanvarda kuchga kirgan va bu hujjat har bir insonning irqi, rangi, millati va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, teng munosabatda bo'lish huquqini mustahkamlaydi”gi qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-oktabrdan kuchga kirgan⁶.

Konvensiya barcha ishtirokchi-davlatlarga irqiy kamsitishning barcha shakllarining oldini olish va bartaraf etish choralari ko'rish majburiyatini yuklagan. Konvensiyaning maqsadi teng imkoniyatlarni yaratish va irqiy kamsitishning har qanday shaklidan himoya qilishdir.

Konvensiya ishtirokchi davlatlardan hayotning barcha sohalarida, shu jumladan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida irqiy kamsitishning har qanday shaklini darhol to'xtatish va oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rishni talab qiladi.

Ushbu konvensiyaga ko'ra har bir ishtirokchi davlat shaxslar, guruhlar yoki muassasalarga nisbatan irqiy kamsitish bilan bog'langan qandaydir xatti-harakat qilmaslikka hamda umumdavlat va mahalliy pog'onalarda barcha davlat organlari va davlat muassasalari shu majburiyatga binoan harakat qilishini zimmalariga yuklab qo'ygan. Shuningdek davlatlar qaysidir shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan irqiy kamsitishni rag'batlantirmaslik, himoya qilmaslik va qo'llab-

⁶ <https://lex.uz/docs/-2656183>

quvvatlamaslik majburiyatlarini mustahkamlab o'tgan.

Ishtirokchi davlatlar irqiy kamsitishni samarali taqiqlash va oldini olish uchun qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishga majburdirlar. Shuningdek, ular konvensiyaning buzilishi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mustaqil organlar va mexanizmlarni tuzishlarini keltirib o'tgan.

Konvensiya ishtirokchi davlatlarni irqiy kamsitishga qarshi kurashda ma'lumot, tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni almashish uchun bir-biri bilan hamkorlik qilishga va irqiy kamsitishni tugatish qo'mitasi bilan hamkorlik qilishga chaqiradi.

Irqiy kamsitishni bartaraf etish qo'mitasi konvensiyaning bajarilishini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan mustaqil ekspert organi hisoblanadi. U a'zo davlatlar tomonidan inson huquqlari sohasidagi vakolatlari va obro'siga qarab tanlangan 18 a'zodan iborat. Organ ishtirokchi davlatlarning konvensiyani amalga oshirishdagi yutuqlari to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqadi va irqiy kamsitishga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beradi⁷.

Xulosa qilib aytganda BMTning *“irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi”* konvensiyasi tenglik va inson huquqlarini himoya qilish uchun kurashda muhim xalqaro vositadir. Uning ratifikatsiya qilinishi va ishtirokchi davlatlar tomonidan samarali amalga oshirilishi irqiy kamsitishlardan xoli bo'lgan adolatli va inklyuziv jamiyatni yaratish uchun zarurdir.

Bundan tashqari, inson huquqlarini himoya qilish va irqiy kamsitishlarga qarshi kurashishga qaratilgan boshqa bir qator xalqaro hujjatlar va konvensiyalar ham mavjud. Masalan, BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasida irqiy kamsitishlarni taqiqlovchi qoidalar mavjud. Shuningdek, *“iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”* (1966) va *“fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”* (1966) Yevropa Kengashining milliy ozchiliklarni himoya qilish bo'yicha doiraviy konvensiyasi va Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi mavjud bo'lib, unda milliy ozchiliklarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qoidalar mavjud.

BMTning inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan⁸.

Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi universal inson huquqlarini belgilaydigan asosiy xalqaro hujjatlardan biridir. Deklaratsiya barcha odamlar uchun tenglik, erkinlik va adolatni himoya qilish va targ'ib qilishga qaratilgan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Irqiy kamsitishga oid moddalarida, butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi kamsitishning ushbu shaklini taqiqlovchi va uni tugatishga chaqiruvchi muhim qoidalarni o'z ichiga oladi.

Deklaratsiyaning birinchi moddasida barcha odamlar o'z qadr-qimmatini va

⁷ <https://lex.uz/docs/-2656183>

⁸ <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

huquqlarida erkin va teng tug'iladi. Ular aql va vijdonga ega va bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida harakat qilishlari kerakligi qayd etilgan⁹. Shuningdek, ikkinchi moddasida ham har bir inson Deklaratsiyada ko'rsatilgan barcha huquq va erkinliklarga ega, irq, terining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tug'ilishi yoki boshqa maqom farqi kabi hech qanday farq qilmasligi mustahkamlanib o'tilgan.

Birlashgan Millatlar tashkilotining Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi irqiy kamsitishga qarshi kurashda muhim vositadir. U irqi yoki millatidan qat'i nazar, har bir inson huquqlarining tengligi va bo'linmasligini tan oladi. Irqiy kamsitishning barcha shakllari ushbu universal huquqlarning buzilishi bo'lib, deklaratsiya tamoyillariga zid hisoblanadi.

Kamsitishni taqiqlash to'g'risidagi qoidalari (2 va 7-moddalar) va siyosiy ishtirok etish huquqini tan olish (21-modda) orqali Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi irqiy kamsitishlarga qarshi kurashish va adolatli va teng huquqli jamiyat yaratish uchun asos yaratadi.

Bizningcha, Birlashgan millatlar tashkilotining Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi irqiy kamsitishlardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi va har bir inson huquqlarining tengligi va hurmatiga asoslangan jamiyat yaratishga chaqiradi. Uning qoidalari irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatishga qaratilgan va har bir shaxsning huquqlarining ajralmasligini ta'kidlaydi.

Ko'rib turganimizdek yuqorida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ikki hujjatni (BMTning **“Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi”** konvensiyasi va **“inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”**) ko'rib chiqdik. Ikkala hujjatning ham maqsadi irqiy kamsitishning barcha shakllarining oldini olish va bartaraf etish, umuminsoniy huquqlarni mustahkamlash va xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Xalqaro huquqiy bazani anchagina tahlil qildik deb o'ylayman endi yoq demasangiz irqiy kamsitilish huquqiy asoslari bo'yicha milliy qonunchiligimizga yuzlansak, bu masala bo'yicha qanday hujjatlar qabul qilingan yoki qaysi hujjatlarda o'z aksini topganligini ko'rib o'tsak.

O'zbekiston Konstitutsiyasining beshinchi bobi barcha fuqarolarning qonun oldida tenglikni kafolatlaydi va kamsitishning har qanday ko'rinishini, jumladan, irqiy kamsitishni ham taqiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlari bisyor, ammo aynan irqiy kamsitilish bo'yicha o'zimiz ishlab chiqqan hujjatlar juda kam hatto yoq desak ham bo'ladi. Biroq irqiy kamsitishlarga qarshi kurashni tartibga soluvchi *“Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi”* Xalqaro konvensiyaga qo'shilganimiz rost. Aynan

⁹ <https://gendermadad.uz/uz/document/2464>

bu hujjatning o'zi ushbu sohada milliy hujjatlarga hojat qoldirmasligi aniq.

Irqiyl kamsitishlarga qarshi kurashni tartibga soluvchi asosiy qonunlardan biri *Irqiyl kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi* Xalqaro konvensiya hisoblandi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bu hujjatga O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda Oliy Majlis Qarori asosida qo'shilgan¹⁰. O'zbekiston Konstitutsiyasining beshinchi bobi barcha fuqarolarning qonun oldida tenglikni kafolatlaydi va kamsitishning har qanday ko'inishini, jumladan, irqiyl kamsitishni ham taqiqlaydi.

Irqiyl kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyasi qoidalarini bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davriyl ma'ruzalarini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan BMT Irqiyl kamsitishni tugatish bo'yicha qo'mitasiga hisobot va maruzalarini taqdim etadi.

BMTning irqiyl kamsitishni bartaraf etish qo'mitasining yakuniyl mulohazalari va tavsiyalarini bajarish bo'yicha 2020-2022-yillarga mo'ljallangan milliy harakatlar rejasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan irqiyl kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyaning qoidalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu rejani tahlil qilish irqiyl kamsitishga qarshi kurashish va barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni baholashga imkon beradi.

Unga ko'ra O'zbekiston hukumati Shu yillar oralig'ida bir qator chora tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Jumladan:

- Etnik mansublik, milliy kelib chiqish, mamlakat aholisi tomonidan foydalaniladigan tillar masalalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash tizimini takomillashtirish;

- Konvensiya normalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va huquqiy baholash masalalarini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- O'zbekistonda yashayotgan millat va elatlar vakillariga nisbatan inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning bajarilishini aks ettiruvchi davlat organlari faoliyatining sifat va miqdor ko'rsatkichlari ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- O'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda etnik guruhlar vakillari duch kelayotgan masalalarni aniqlash bo'yicha milliy madaniyl markazlar bilan maslahatlashuv o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasining "Kamsitishga yo'l qo'ymaslik va tenglik to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish masalasini o'rganish;

- Konvensiyaning 4-moddasi va amaldagi qonunchilikning mamlakatda istiqomat qiluvchi etnik guruhlar uchun tinch yig'ilishlar o'tkazish va fikrni ifodalash erkinligi sohasiga muvofiqligini o'rganish;

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-5091690>

- Etnik guruhlar uchun o'z ona tilida ta'lim va tarbiya tizimini shakllantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining ijrosi holatini barcha ta'lim bosqichlarida o'rganish¹¹.

Ko'rib turganimizdek juda ham keng ko'lamli rejalar taqdim etilgan, BMTning irqiy kamsitishni bartaraf etish qo'mitasining yakuniy mulohazalari va tavsiyalarini bajarish bo'yicha 2020-2022-yillarga mo'ljallangan milliy harakatlar rejasi O'zbekiston Respublikasining irqiy kamsitishga qarshi kurashdagi muhim qadamidir.

Bizning fikrimizcha, rejada qonunchilikni mustahkamlash, ma'rifiy ishlar, qurbonlarni himoya qilish va xalqaro hamkorlikka qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'zda tutilganligini hisobga olgan holda rejani amalga oshirish O'zbekiston Respublikasida yanada adolatli va teng huquqli jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. Shuningdek, Konvensiya profilaktika choralari qo'llab-quvvatlaydi va ushbu taqiqni buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. Bu O'zbekiston Respublikasining irqiy kamsitishlardan xoli, adolatli va bag'rikeng jamiyat barpo etishda asosiy rol o'ynaydi.

Biz yuqorida umumiy tushunchalar, olim fikrlari, nazariyalar va xalqaro hujjatlarni ko'rib o'tdik, endi irqchilik bilan bog'liq sud amaliyotini ko'rib o'tsak.

"Fisher va Texas universiteti" ishi. Nomidan ma'lumki ushbu sud ishi Amerika Qo'shma Shtatlarining Texas shtatida 2016-yilda bo'lib o'tgan ushbu ishda sud Texas universiteti talabalar tanasida xilma-xillikka erishish uchun talabalarni qabul qilishda irqiy kvotalardan foydalanish huquqiga ega degan qarorga keldi. Ushbu vaziyatda Fisher Texas universitetiga hujjatlarini taqdim etadi va qabul jarayonida Fisherga irqi tufayli hujjatlarini qabul qilmasliklarini bildiradilar. Talaba Abigayl Fisher universitetni irqi tufayli qabul qilinmaganligi uchun sudga beradi. Sud, universitet irqqa asoslangan qabul jarayonidan foydalanganligini aniqlagan¹².

Yana bir amaliy misolni keltirib o'tsak, Braun va ta'lim Kengashi ishi Amerika qo'shma Shtatlari tarixidagi asosiy sud qarorlaridan biri bo'lib, ta'lim tizimi va fuqarolik huquqlari uchun kurashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

1954 yilda AQSh Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan ushbu ishda Oliver Braunning oilasi Kanzas shtatining Topeka shahridagi ta'lim Kengashiga qarshi shikoyat qildi. Oilaning ta'kidlashicha, ularning qizi Linda irqi tufayli uyi yaqinidagi oq maktabga kirishdan bosh tortgan. Ularning ta'kidlashicha, oq maktabga faqatgina oq tanlilar borar ekan, va bu tartib-tamoyil maktab rahbariyati tomonidan qat'iy belgilangan.

Oliy sud bir ovozdan ta'limdagi irqiy bo'linish AQSh Konstitutsiyasiga zid va tenglik huquqlarini buzadi, deb qaror qildi. "Braun qarori" deb nomlanuvchi sud qarori "alohida, ammo teng" deb nomlanuvchi prinsipni bekor qildi va maktablarning irqiy integratsiyasini talab qildi.

¹¹ <https://lex.uz/docs/-5091690>

¹² https://www.supremecourt.gov/opinions/15pdf/14-981_4g15.pdf

Ushbu qaror Amerika ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu fuqarolik huquqlari uchun kurashning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi va maktablarda irqiy segregatsiyani yo'q qilishga qaratilgan Qonunchilik va siyosatdagi bir qator o'zgarishlarga olib keldi. Brauning qarori tenglik uchun kurashning ramzi va AQShdagi fuqarolik huquqlari harakati uchun muhim g'alabaga aylandi.

Ushbu ishdagi sud amaliyoti barcha fuqarolar uchun, ularning irqi yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, teng ta'lim olish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu ikkala holat ham AQShda irqiy kamsitish hali ham katta muammo ekanligini, shuningdek, fuqarolik huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolat uchun kurashda sud tizimining rolini katta ekanligini bildiradi¹³.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, kamsitish inson huquqlarining yo'l qo'yib bo'lmaydigan buzilishidir. Unga qarshi kurashish barcha jabhalarda - hukumatlar, tashkilotlar va umuman jamiyatdan kuch talab qiladi. Faqat adolatli va teng huquqli jamiyatni yaratish orqali biz hamma uchun haqiqiy xilma-xillik, tenglik va adolatga erisha olamiz. Huquqiy asoslar o'rnatilgan va irqiy kamsitishga qarshi kurash olib borilayotgan bo'lsa-da, uni engish qiyin bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat huquqiy asoslarni mustahkamlashni, balki jamoatchilik fikri va xulq-atvorini o'zgartirishni ham talab qiladi.

Shunday qilib irqiy kamsitish butun dunyo bo'ylab turli jamiyatlarda mavjud bo'lgan asosiy muammodir. Biroq, irqiy kamsitishning oldini olish va oldini olishga qaratilgan xalqaro hujjatlar va qonunlar kabi o'rnatilgan huquqiy asoslar yanada adolatli va teng jamiyat qurishga biroz bo'lsada umid beradi.

Shunga qaramay, irqiy kamsitish hali ham turli shakl va ko'rinishlarda mavjud bo'lib, uni yengish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar etiladi. Bunga faqat huquqiy asoslarni mustahkamlash, ma'rifatni yuksaltirish, xurofot va stereotiplarga yani noto'g'ri qarashlarga qarshi kurashni kuchaytirish orqali erishish mumkin.

Umuman olganda, irqiy kamsitishlarga qarshi kurashish jamiyatning barcha a'zolaridan kuch talab qiladi va bu hamma uchun adolatli va teng dunyo yaratish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Ijtimoiy antropologiya. K. Kalanov, U. Sabirova. - Toshkent: «Go To Print», 2020.-176 b.
3. Bonilla-Silva, E. (2014). Racism without Racists: Color-Blind Racism and the Persistence of Racial Inequality in the United States.
4. Becker, H. S. (1963). Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance.

¹³ <https://www.oyez.org/cases/1940-1955/347us483>

Foydalanilgan normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.23
2. "Irtiqy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konvensiya" 1965-yil 21-dekabr, Nyu-York.
3. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966).
4. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966).
5. BMTning "inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 1948 yil, 10 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori, 31.08.1995 yildagi 129-I-son.

Foydalanilgan internet manbaalar:

1. <https://icermediation.org/uz/qora-hayot-materiyasi/>
2. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/>
3. <https://www.jstor.org/stable/>
4. <https://olamsport.com/oz/news/>
5. <https://lex.uz/docs/>
6. <https://www.oyez.org/cases/>
7. <https://www.supremecourt.gov/opinions/>
8. <https://constitution.uz/>
9. <https://gendermadad.uz/>